

## MATN PERSEPSIYASI VA INTERMATN

**Yusubova Rano Norboyevna**  
**O‘zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti professori,**  
**filologiya fanlari doktori**

**Annotatsiya:** Tezisdagi matn kommunikativ birlik sifatida ijtimoiy hamkorlik qilish kodi ekanligi, matn yaratishda e‘tibor qaratish lozim bo‘lgan jihatlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Matn, persepsiya, intertekstuallik, nutqiy faoliyat, intermatn, allyuziya.

**Аннотация:** В тезисе подчеркивается тот факт, что текст как коммуникативная единица представляет собой код социального взаимодействия, на аспекты которого следует обратить внимание при создании текста.

**Ключевые слова:** Текст, перцепция, интертекстуальность, речевая деятельность, интертекст, аллюзия.

**Annotation:** The thesis emphasizes the fact that the text as a communicative unit is a code of social interaction, the aspects of which should be paid attention to when creating a text.

**Keywords:** Text, perception, intertextuality, speech activity, intertext, allusion.

Mukammal matnda til haqidagi bilimlarni chuqur o‘zlashtirganlik, tilning shaxs mentaliteti, tafakkuri, ruhiyati bilan aloqador jihatlari, olam haqidagi bilimlarning kengligi, albatta, muallif ruhiyati aks etadi. Bugun ona tili fani oldida mukammal matn yarata oladigan o‘quvchilarni shakllantirish muammosi turibdi, chunki matn – ijodiy faoliyat, o‘quvchi matn yaratish jarayonida matnni qayta ishlash, tuzatish, mukammallashtirish bosqichlaridan o‘tadi. Matn yaratish va uni takomillashtirish jarayoni ham og‘zaki, ham yozma nutqiy faoliyatning zaruriy tarkibiy qismi sifatida matn yaratuvchisining (o‘quvchining) zimmasiga alohida mas‘uliyatni yuklaydi. Demak, matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishga va buning uchun matnga qo‘yiladigan talablarga e‘tibor qaratilishi lozim. Matn yaratuvchining (o‘quvchining) mental bilimlarini yuzaga chiqaradi: muammo tashlanadi, muhokama va tahlil qilinadi, xulosalanadi. O‘quvchi o‘z xulosasiga ega bo‘ldimi, demak, uning fikrlash qobiliyati, dunyoqarashi rivojlangan, egallagan bilimlarini muvofiqlashtira olyapti.

Ma‘lum bir matnning yaratilishi boshqa matnlarga asoslanganlik natijasida sodir bo‘ladi, R.Bartning fikricha, har qanday matn tugallangan, yopiq mahsulot emas, balki bizning ko‘z o‘ngimizda boshqa matnlarda, boshqa kodlarda (intertekstuallik doirasida) davom etayotgan, ularni jamiyat bilan, o‘tmish bilan bog‘lovchi mahsul sifatida kuzatilishi kerak. [1]

Matnlararo aloqadorlikni va ularning turlarini yagona intertekstuallik termini ostida birlashtirish hodisaga doir xususiyatlarni chalkashtirishning oldini oladi, muhimi, hodisaning mohiyatini to‘g‘ri ochib berishdir. O‘zbek tilshunosligida

intertekstuallik masalasiga M.Yo‘ldoshev [2] hamda intertekstuallikni monografik planda o‘rgangan M.Xomidova [3] jiddiy e‘tibor qaratishgan.

“Asosiy matnga olib kiriladigan o‘zga matn yoki uning muayyan unsuri yozuvchi niyatiga ko‘ra asosiy matn strukturasi turli qismlaridan joy olishi mumkin”. [2] N.A.Fateeva badiiy matndagi intertekst turlari sifatida quyidagilarni belgilaydi: Allyuziya. Reminissensiya. Epigraf. Sarlavha. Iqtibos. Aforizmlar. Maqol, matal. [4]

Tahlillar asosida allyuziya, reminissensiya, epigraf, sarlavha, iqtibosni intertekstuallikning turlari sifatida qayd etish mumkinligi oydinlashadi, sababi tasnifda keltirilgan aforizm, maqol, matallar alohida intertekst turi sifatida emas, balki allyuziya, reminissensiya, epigraf, sarlavha, iqtiboslarni yuzaga chiqaruvchi manba sifatida voqelanadi.

Matnda intertekstuallikni ifodalash matn persepsiyada qay darajada ahamiyatli? Asos sifatida V.Dressler hamda R.A.de Bograndlar taqdim etgan quyidagi yetti kategorial belgini keltirish mumkin: 1) kogeziya – matn bo‘laklarining grammatik, leksik, ritmik, grafik vositalar yordamida birikishi; 2) kogerentlik – matn qismlarining semantik-mantiqiy munosabatlar (sabab-oqibat, referentativ, zamon-makon) negizida bog‘lanishi; 3) intensionallik – matn strukturaviy va ma‘noviy yaxlitligining kommunikativ maqsad bilan bog‘liqligi; 4) adresatlik – axborotni uni qabul qiluvchining ijtimoiy mavqei, ruhiy holati kabi xususiyatlarini inobatga olgan holda uzatish (boshqacha aytganda – resipient tanlovi); 5) informativlik – uzatilayotgan axborotning adresat uchun muhimligi yoki yangilik darajasi; 6) situativlik – matn mazmuniy va strukturaviy qurilishining kommunikativ sharoit, vaziyat bilan bog‘liqligi; 7) intertekstuallik – ma‘lum turdagi matn tarkibida invariant mazmun-ma‘noning qayta yaratilishi. [5]

Shu o‘rinda, allyuziya asosida fikrimizni dalillamoqchi, matn yaratuvchisining ushbu intermatndan foydalanishga tavsiya etmoqchimiz.

**Allyuziya** – (lot. *allusio* – ishora, hazil) muayyan til birligi vositasida avvaldan ma‘lum bo‘lgan siyosiy, ijtimoiy-tarixiy, madaniy yoki adabiy faktlarga ishora qilishdan iborat uslubiy figura. Bunda ishora qiluvchi birlik til sohibiga avvaldan ma‘lum bo‘lgan allyuziya ko‘rsatkichi sanaladi va allyuziv antroponim, allyuziv toponim, allyuziv nom, allyuziv zoonim, allyuziv kosmonim kabi ko‘rinishlarda voqelanadi. Allyuziyaning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan faktlar olingan manbalar allyuziya manbasi sanaladi. Allyuziya Sharq mumtoz she‘riyatida keng qo‘llangan talmeh san‘atiga yaqin turadi.

D.Xudoyberganova ta‘kidicha, allyuziv matnda ishora qilingan matn yoki ijtimoiy-tarixiy fakt allyuziya denotati sanaladi [6], masalan, S.Sayyidning “Pahlavon Mahmud” she‘rida allyuziya namunasi kuzatiladi:

Sening hasratlaring uzun,  
She‘rlaring qisqa.  
Ne-ne gado ko‘rding,  
ne sulton ko‘rding.  
Nuh ming yil yashadi –  
Ko‘rdi bir to‘fon.

Sen  
Nuh bo‘lmasang ham,  
ming to‘fon ko‘rding.

«Xorazm Xayyomi» nomi bilan shuhrat qozongan shoir Pahlavon Mahmud (Puryorvaliy, 1247-1326) kuragi yerga tegmagan polvon, Xivadagi futuvvatchilar jamoasining boshlig‘i, javonmardlar peshvosi bo‘lgan, mardlik va saxovatning eng oliy namunalarini ko‘rsatib, o‘ziga ergashganlarga ibrat bo‘lgan. Ruboiylarida futuvvatning nazariy qoidalarini bayon qilgan. Pahlavon Mahmud shogirdlariga polvonlik sirlarini o‘rgatuvchi ustozgina emas, ularga javonmardlik odobini o‘rgatuvchi pir bo‘lgan. Javonmardlarning shiori dunyodagi yovuzlikning barcha ko‘rinishlariga qarshi hamisha, hamma yerda ezgulikni himoya qilish, targ‘ib etish va qo‘llab-quvvatlashdan iborat. U o‘zi yashagan jamiyatda ham, ruboiylarida ham ana shu shiorga amal qilib yashagan. Shu sabab ham S.Sayyid resipient ko‘z o‘ngida Pahlavon Mahmud hayotini to‘la jonlantirish maqsadida unga avvaldan ma‘lum bo‘lgan Nuh alayhissalom hayoti va oqibat Nuh alayhissalom qavmiga yuborilgan to‘fonni gavdalandirmoqda.

Kuzatiladiki, allyuziya mazmunan matn persepsiyasi bilan aloqador bo‘lsa, formal nuqtai nazardan matn qurilishiga qo‘yiladigan yana bir talab lakoniklik bilan aloqador. Matn hajmiga ta‘sir etmaydigan implitsit ifoda sifatida voqelanadi. Mazmuni nusxalash, qayta ishlangan informatsiyani yodga olish egallangan bilimlarni integratsiyalash bilan bir o‘rinda, o‘quvchining intellektual imkoniyatlarini belgilaydi, natijada mantiqan qiyoslash orqali matn mazmuni idrok qilinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Барт Р. Текстовый анализ одной новеллы Эдгара По [Текст] / Р. Барт // Барт Р. Избранные работы: Семиотика: Поэтика: пер. с фр. / сост. Г.К. Косиков. – М. : 1989.
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. –T.: Fan, 2008.
3. Xomidova M. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. Monografiya. –T.: Bookmany print, 2023.

### **BILINGVIZMNING LINGVOKOGNITIV TADQIQI (BOLALAR NUTQI MISOLIDA)**

**Nasiba Jumayevna YARASHOVA,**  
**O‘zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti professori v.b., f.f.d. DSc)**

**Annotatsiya.** Til ijtimoiy munosabatlar mahsuli sanalib, mamlakatimizda yashayotgan har bir xalqning ona tili uning milliy o‘ziga xosligi va ma‘naviy madaniyatining yorqin ko‘rsatkichidir. Til tafakkur bilan monand bog‘langani holda ongni shakllantiradi. Nutq va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik nafaqat psixologik jarayonlarning chuqur bosqichlarida, balki ijtimoiy hodisalar darajasida